# Janubiy Koreyaga borayotgan yoʻlovchilar diqqatiga

**2022 14 Iyun**

“Uzbekistan Airways” AJ Rossiya Federatsiyasi va Qozogʻiston Respublikasi fuqaroligiga ega boʻlgan yoʻlovchilarga Koreyaga kirish qoidalari haqida maʼlumot beradi. Janubiy Koreya rasmiylari talabiga koʻra, 2022-yil 30-martdan boshlab Toshkent – Seul yoʻnalishi boʻyicha qatnovchi yuqoridagi davlatlarning yoʻlovchilari Koreyaga kirish uchun ruxsat olishlari kerak.

K-ETA arizalarini topshirish orqali oddiy pasport egalarini Koreya Respublikasiga yana 60 kundan (Rossiya fuqarolari) va 30 kundan (Qozogʻiston fuqarolari) koʻp boʻlmagan muddatga vizasiz kirishlari mumkin boʻladi.

Hozirda Koreya Respublikasida chet el fuqarolarining kirishiga ruxsat beruvchi “K-ETA” elektron tizimi mavjud boʻlib, unga koʻra mamlakatga vizasiz rejimda kelayotgan xorijliklar parvozdan kamida 24 soat oldin  www.k-eta.go.kr (http://www.k-eta.go.kr/) saytida Janubiy Koreya hukumati tomonidan mamlakatga kirish uchun ruxsat olish uchun rejalashtirilgan sayohat haqida elektron bildirishnoma taqdim etish talab qilinadi.

Koreyaga rirish ruxsatnomasi boʻlmasa, Uzbekistan Airways yoʻlovchilarni havo kema bortiga qatnov uchun chiqarmaslikka majbur boʻladi.